

MUSIQA TA'LIMIDA INTERAKTIV METODLARNING METODIK
IMKONIYATLARI**Raximov Kazimjon Raupovich***FDU pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fakulteti**musiqiy ta'lin va madaniyat kafedrası o'qituvchisi*kazimjonraximov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa ta'limida interaktiv metodlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari tahlil etilgan. Unda "interaktiv" tushunchasining mohiyati, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi va ijodiy qobiliyatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, musiqa darslarida qo'llaniladigan metodlarning samaradorligi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Musiqa ta'limi, interaktiv metodlar, metodik imkoniyatlar, ijodiy qobiliyat, o'quvchi faolligi, musiqa darsi samaradorligi.*

Аннотация: *В статье анализируются методические возможности использования интерактивных методов в музыкальном образовании. Раскрывается сущность понятия «интерактив», его значение в повышении активности учащихся на уроке и их творческих способностей. Показывается эффективность методов, используемых на уроках музыки.*

Ключевые слова: *Музыкальное образование, интерактивные методы, методические возможности, творческие способности, активность учащихся, эффективность уроков музыки.*

Abstract: *This article analyzes the methodological possibilities of using interactive methods in music education. It highlights the essence of the concept of "interactive", its importance in increasing students activity in the lesson process and their creative abilities. It also shows the effectiveness of the methods used in music lessons.*

Key words: *Music education, interactive methods, methodological opportunities, creative abilities, student activity, music lesson effectiveness.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar kundan-kunga ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilardan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish talab etiladi. Shunday sharoitda ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlar ta'lim jarayonini o'quvchi va o'qituvchi hamkorligiga asoslangan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu usullar yordamida o'quvchilar darsda faol ishtirok etadi, o'z fikrini erkin bildiradi, yangi bilimlarni izlash va amaliy qo'llashga intiladi. Ayniqsa, musiqa ta'limida interaktiv metodlarning o'rni beqiyos bo'lib, ular o'quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Musiqqa darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning yana bir muhim jihati — o'quvchilarda musiqaga qiziqishni oshirishdir. Darslarda qo'llaniladigan turli usullar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada musiqqa darslari oddiy tinglash va qayta hikoya qilishdan ko'ra ko'proq ijodiy izlanish, hamkorlik va mustaqil faoliyatga asoslangan jarayonga aylanadi.

Shu bois, maqolada musiqqa ta'limida interaktiv metodlarning mohiyati, ularning o'quvchilarni faollashtirishdagi, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi va dars samaradorligini oshirishdagi metodik imkoniyatlari yoritiladi.

Materiallar va usullar. Zamonaviy talab va metodlar asosida, umumfanlar bo'yicha dastur hamda o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilgan. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi, yosh avlodni sog'lom va barkamol inson bo'lib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirish uchun o'quv mashg'ulotlari va dars jarayonini olib borish qobiliyatini o'qituvchilar o'zlarida paydo qilishlari uchun ta'lim nazariyasi bilan birga o'qitishning zamonaviy usullarini egallab, ulari pedagogik amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilish zarur. O'qituvchi "Pedagogik texnologiya" jarayonining asl mohiyatiga har bir mashg'ulotning loyihasini tuza olishi va bu loyihadan pedagogik amaliyotda mohirona foydalana olishlari kerak. Shu bilan birga o'z ma'naviyati ustida tinmay ishlash ko'nikmasini hosil qilish kerak. Yevropa va Sharq kompozitorlarining mumtoz asarlari bilan tanishib, "Musiqqa madaniyati" darslarini sifatli va salohiyatli olib borish uchun intilishi lozim. "Musiqqa o'qitish metodikasi" fani pedagogika fani sifatida, tajribada sinalgan ishlarni barcha qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan musiqqa o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika fani asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi.

U musiqqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab, kelajakda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda qo'llanadigan zamonaviy texnologiyalar va metodlari belgilab beradi. Metodika fani ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash uslublari mazmunini anglatadi. O'zbekistonda metodika fani shakllanishiga buyuk mutafakir, olimlar, ilg'or tajribali o'qituvchilar, metodistlar, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari, izlanishlari, tajriba-sinov ishlari, risolalari, fikrlari, o'quv dasturlari va darsliklarini yaratib o'z hissalarini qo'shganlar. Bularga misol qilib buyuk mutafakkirlardan Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy; olimlardan Ikrom Akbarov, Ilyos Akbarov, Qo'ldosh Manirov, Darvin Omonullayev, Oqilxon Ibragimov, Soibjon Begmatov; kompozitorlardan Shermat Yormatov, Fattoh Nazarov, Doni Zokirov, Nadim Norxojayev, Rustam Abdullayev, Habibullo Rahimov, Dilorom Omonullayeva, Avaz Mansurov; metodistlardan Hamidulla Nurmatov, Emma Shainskay, Dildora Karimova, Gulnora Sharipovalami aytish mumkin. "Musiqqa o'qitish metodikasi" kursining fan sifatida maqsadi talabalarni bo'lajak musiqqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash, ulari metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar ijodiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki maktabda o'quvchilarning yosh psixologik fiziologik xususiyatlariga qarab, musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi qo'llanadi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining dasturi ta'lim tamoyillari, o'quv tarbiya ishlarining maqsad va vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Olingan natijalardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, interaktiv metodlar musiqqa darsini samarali, qiziqarli va ijodiy tashkil etish imkonini beradi. Bunday metodlar

o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning ijodiy tafakkurini, badiiy didini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalarini interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirish o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish asosida o'qitish samaradorligini oshirish davr talabi sifatida barcha pedagog o'qituvchilar qatorida musiqa o'qituvchisining ham zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Har qanday fanni, shu jumladan musiqa madaniyati darslarini o'qitish jarayonida ham faollashtirilgan, o'quvchilarni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi, mushohada qiluvchi, o'z fikrlarini bildirayotgan shaxs sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi-bu o'qituvchidir.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, musiqa ta'limida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy metodlardan farqli o'laroq, interaktiv yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va o'z imkoniyatlarini kengroq namoyon etishga undaydi.

Munozara. O'quvchi faolligi - interaktiv metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning dars jarayoniga jalb etilishi yuqori bo'lishi.

Ijodiy qobiliyat -ijodiy topshiriqlarda o'quvchilar o'zini yangi g'oyalarini erkin ifodalashga intilishadi.

Hamkorlik - guruhlarda ishlashda o'quvchilar bir-biridan o'rgandi, jamoaviy fikrlash shakllanadi.

Motivatsiya - interaktiv usullar o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

XULOSA

Musiqa ta'limida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodlar yordamida darslar an'anaviy yondashuvdan chetlanib, o'quvchilarni musiqiy faoliyatga faol jalb etish, ularning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashni, tinglash va ijro etishni, musiqiy asarlarni tahlil qilishni o'rganadilar. Natijada darslar nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, ijodkorlikni yuzaga chiqarish va musiqaga bo'lgan qiziqishni mustahkamlash jarayoniga aylanadi.

Interaktiv metodlar musiqa ta'limini qiziqarli, samarali va ijodiy tashkil etishga keng imkoniyat yaratadi. Ularning qo'llanilishi o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ijodkorlik, estetik did va hamkorlikda ishlash malakalarini rivojlantiradi. Shu bois interaktiv yondashuv zamonaviy musiqa ta'limining muhim metodik asoslaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipova G. Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi darslik Toshkent "Nif msh" 2020
2. Soliyeva Dilorom Alisher qizi Toshkent viloyati Chinoz tumani 18-sonli umumta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi.

3. “Maktab o'quvchilari uchun musiqa fanini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanishning natijaviyligi” Journal of innovations in scientific and educational research volume-2, issue-13 (26-december) 282

4. <https://bestpublication.org/index.php/jaj/article/view/2647>